

## TARBIYA BAXT KALITI

**Nuritdinova Xurshida Norpo‘latovna**

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

**Bozorova Sevinch Anvar qizi**

Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada farzand tarbiyasi haqida sharq mutafakkirlari qarashlari, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi va vazifalari, oilada tarbiyaning o‘rni hamda go‘zal xulq va tarbiya baxtga yetaklashi haqidagi fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, aql, farzand, hurmat, ota-ona, zamonaviy tarbiya, burch, odob, baxt.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Ta‘lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o‘zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo‘shganlar. Masalan: Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-Haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub - ul qulub”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir. shuningdek tarbiya jarayonida ota-onaning alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan hadis-u shariflarda keltirilganidek “Hech bir ota-ona o‘z farzandiga xulq odabdan ya‘ni tarbiyadan buyukroq meros berolmaydi”. Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e‘tibor berishni ta‘kidlaydi.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi. Bundan tashqari Shoh Kaykovusning "Qobusnoma" asarida tarbiya, axloq masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan "Ota-onani hurmatlash haqida"gi bobida g'oyat muhim bir fikrni bayon qiladi, bu o'rinda xalqimizning "Nima eksang, shuni o'rasan" degan mashhur bir maqolini ishlatadi. Unga ko'ra kishi odamlarga yaxshilik qilsa, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat qilsa, uning bu ezgu ishlari boshqalardan qaytadi, mabodo yomonlik, dilozorlik qilsa ham qilmishlari boshqalardan albatta o'ziga qaytadi.

Bundan tashqari u o'z asarlarida o'g'liga nasihat qilib deydi: "... o'z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo'y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo'lsang, xuddi shunday o'zingga qaytgay". U bu bilan ota-onaning ko'nglini ranjitmaslikka, ularni hurmatini qilib, shirinso'z, xushmuomala bo'lishga undaydi.

"Qobusnoma"da yoshlikda bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o'rganishga sarflash ayni muddao ekanligi ta'kidlangan.

Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shu asosda Uzluksiz manaviy tarbiya konsepsiyasining maqsadi-yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yig'ishga mos, bosqichma bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu konsepsiyada tarbiyaning xomiladorlik davridaan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanishidan iboratdir.

Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo'lsagina, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart. Ayni damda tarbiya sohasida o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarga shaxsan namuna bo'lishlari ham muhimdir!

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”. Shunday ekan, ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmashimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o’nib-o’sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo’lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o’z o’rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog’liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimizni sog’lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o’z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o’z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an’analariga sodiq bo’lishsin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori “Uzliksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” 31.12.2019 йилдаги 1059-сон Lex.uz
2. Kaykovus. “Qobusnoma” forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasini O‘qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2017
3. X Nuritdinova “MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI” Евразийский журнал академических исследований 2022/3/17 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492>
5. X Nuritdinova “SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI” Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2022/12/15 <https://zenodo.org/record/7445514>

6. XN Nuritdinova. “KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI” Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. 1, № 7, 158-160, 2022.12.15
7. X Nuritdinova. “MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI” «zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(28), 135–137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534>
8. XN Nuritdinova. “[TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI](#)” Educational Research in Universal Sciences, 2, № 9, 212-214, 2023.9.21
9. XN Nuritdinova “TA’LIM JARAYONIDA BO ‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH” Экономика и социум, 5-1 (108), 252-255, 2023, <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-bo-lajak-mutaxassislarning-kommunikativ-kompetentliligini-rivojlantirish-orqali-kasbiy-tayyorgarligini>
10. X Нуритдинова “Общетеоретические аспекты определения содержания образования и проектирования педагогической науки” Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education 1, № 6, 151-154 2023.5.17
11. Nuritdinova , X. N., & Bozorova, D. M. qizi. (2023). TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 89–92. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3932>
12. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 571-574.
13. Kuvvatova, M. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 665-670.
14. Quvvatova, M. H., & Ibrohimova, K. A. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI. Студенческий вестник, (16-7), 71-73.
15. Quvvatova, M. (2022). PEDAGOGIK TA’LIMNING BO‘LAJAK BAKALAVRLAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA TAYYORLASHDAGI KASBIY XUSUSIYATLAR. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(27), 29-31.
16. Quvvatova, M. (2022). LEARNING TO DEVELOP THE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION STUDENTS. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 131-134.
17. Quvvatova, M. (2022). OLIY TA’LIM TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. Академические исследования в современной науке, 1(19), 236-239.

18. Quvvatova, M. (2022). WAYS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Models and methods in modern science, 1(18), 4-7.
19. Quvvatova, M. H., & Alisherova, S. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISHDA LUG ‘AT ISHINING AHAMIYATI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 472-474.
20. M Kuvvatova, F Kholmuminova (2023). [Development of creativity of students of higher educational institutions pedagogical justification](#) International Conference On Higher Education Teaching 1 (3), 110-111
21. QM Hikmatullayevna (2022). [TO DEVELOP THE CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IMPORTANCE](#) TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI 2 (12), 262-264
- M Quvvatova, R Abdusalomova (2023). [REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH](#) Наука и инновация 1 (9), 137-139
22. Quvvatova, M. H. (2023). TALABALARINING KREATIVLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARINI NAZARIY ASOSLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 382–386. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3993>
23. Quvvatova, M. H., & Nabiyeva, F. I. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 80–82. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3929>
24. Quvvatova, M. H., & Mahmudova, S. S. qizi. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 86–88. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3931>
25. Quvvatova, M. H., & Abdusalomova, R. A. qizi. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 77–79. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3928>
26. Quvvatova, M. H., & Abdusalomova, R. A. qizi. (2023). PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3729>